


TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

67 583



Mas'uliyati cheklangan
jamiyatlar

3 198



Oilaviy korxonalar

552



Unitar korxonalar

12 858



Xususiy korxonalar

227



Aksiyadorlik jamiyatlari


434



Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar–oktabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar–oktabr oylarida, birlikda)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlarning soni 15,6 mingtani tashkil etib, o'sish sur'ati 105,5 %ni tashkil etdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari sonini ko'payishining asosiy omili – tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash yo'nalishidagi korxonalarning o'sish sur'ati 116,9%ga (jami sanoatdagi ulushi 2,4%ga yetdi), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 105,2%ga (jami sanoatdagi ulushi 95,6%ni tashkil etdi), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 126,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5%ni tashkil etdi) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – 101,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %ni tashkil etdi) o'sishidir.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,3 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari




16,8 foizga oshdi



Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar



Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




- bino va inshootlar qurish
- fuqarolik obyektlarini qurish
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlarning soni 7,6 mingtani tashkil etib, o'sish sur'ati 117,3%ni tashkil etdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar sonini ko'payishining asosiy omili – bino va inshootlar qurish yo'nalishidagi korxonalarining o'sish sur'ati 113,7%ga (jami qurilishdagi ulushi 49,9%ga yetdi), fuqarolik obyektlarini qurish – 122,2%ga (jami qurilishdagi ulushi 6,6%ni tashkil etdi) hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 120,8%ga (jami qurilishdagi ulushi 43,5%ni tashkil etdi) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




27,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni 25,5 mingtani tashkil etib, o'sish sur'ati 127,1 %ni tashkil etdi.

Jami savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar sonini ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishidagi korxonalarining o'sish sur'ati 130,2%ga (jami savdodagi ulushi 48,8%ni tashkil etdi), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo – 123,5%ga (jami savdodagi ulushi 43,8%ni tashkil etdi) hamda avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash – 128,9 %ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %ga teng) o'sishidir.





- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra 3,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 16,9%ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 16,0%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 0,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 74,0%ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 7,0 mingtani tashkil etib, ulardan 6,7 mingtasi yoki 96,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,8 mingtaga yoki 113,9%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida 825ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

<i>Mamlakatlar</i>	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 227	663	563
Qozog'iston Respublikasi	646	295	351
Ozarbayjon Respublikasi	158	49	109
Ukraina Respublikasi	100	53	47
Qirg'iz Respublikasi	82	32	50
Tojikiston Respublikasi	77	35	42
Turkmaniston Respublikasi	59	22	37
Belarus Respublikasi	55	27	28
Armaniston Respublikasi	24	16	8
Moldova Respublikasi	16	4	12


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(yillar kesimida 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	6 745	2 825	3 920
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	219	81	138
Bektemir	165	94	71
Yunusobod	869	369	500
Mirzo Ulug'bek	847	369	478
Mirobod	1 156	375	781
Shayxontohur	474	233	241
Olmazor	366	202	164
Sirg'ali	301	157	144
Yakkasaroy	1 067	409	658
Yashnobod	533	249	284
Chilonzor	748	287	461

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 156ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 067ta (15,8%) hamda Yunusobod tumanlarida 869tani (12,5 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Sirg'ali – 301ta (4,5 %), Uchtepa – 219ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 165tani (2,4 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – 13,2 %, Chilonzor – 12,8 %, Mirzo Ulug'bek – 11,1%, Olmazor – 10,2 %, Shayxontohur – 9,9 %, Uchtepa – 9,2 %, Yakkasaroy – 8,7 %, Mirobod – 8,6 %, Yashnobod – 7,7 %, Sirg'ali – 6,2 % hamda Bektemir tumanlarida 2,4 % tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil yanvar–oktabr oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar–oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – 13,1 %, Yunusobod – 11,6%, Mirzo Ulug'bek – 11,2 %, Uchtepa – 10,1 %, Shayxontohur – 10,1 %, Olmazor – 9,9 %, Yashnobod – 8,3 %, Mirobod – 8,1%, Yakkasaroy – 7,4 %, Sirg'ali – 7,4 % hamda Bektemir tumanlarida 2,8 % tashkil etgan.



Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni



(2020-yilning yanvar–oktabr oylarida, birlikda)



2020-yilning yanvar–oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Olmazor – 14,7 %, Shayxontohur – 14,3 %, Yunusobod – 12,0 %, Yashnobod – 10,4 %, Uchtepa – 9,1 %, Chilonzor – 8,5 %, Mirzo Ulug'bek – 8,1 %, Sirg'ali – 7,9%, Yakkasaroy – 6,8 %, Mirobod – 4,2 % hamda Bektemir tumanlarida 4,0 % tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar–oktabr oylarida)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

tel.: 71 203-88-31